

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JORIY  
ETISHDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARINING  
VAZIFALARI**

Rahmatova Fotima

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti dotsenti

Umrzoqova Nargiza

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limning joriy etilishining sababi, muassasada ishlovchi pedagoglarning vazifalari, 2020-2025 yillar oralig'idagi inklyuziv ta'limni rivojlantiruvchi konsipsiyaning maqsadi va natijalari xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, dars, pedagog, inklyuziv ta'lim, samaradorlik, imkoniyati cheklangan bolalar, tarbiyachi.

**Abstract**

The article discusses the reason for the introduction of inclusive education in preschool education, the tasks of pedagogues working in the institution, the purpose and results of the concept that develops inclusive education in the period of 2020-2025

**Keywords:** Education, lesson, pedagogue, inclusive education, efficiency disabled children, teacher.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

Quyidagilar:

2020 - 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi;

2020 - 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini

2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Belgilandiki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

2. Xalq ta'limi vazirligi 2021-yildan boshlab har yili 1-dekabrga qadar o'tayotgan yilning "Yo'l xaritasi" bajarilishi yakunlarini batafsil o'rganish asosida keyingi yil uchun "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqiladi va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasi "Yo'l xaritalari" hamda maqsadli ko'rsatkichlarning (indikatorlarning) bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boriladi hamda yiliga bir marta uning natijalarini Hukumat rayosati majlislarida tanqidiy ko'rib boriladi.

Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi, jumladan:

2020 - 2022-yillar davomida:

- inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;
  - inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;
  - inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;
  - inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;
  - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;
  - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;
- inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi;

2023 - 2025-yillar davomida:

- inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinadi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;
- inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi;
- inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko'riladi;
- o'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) soni optimallashtiriladi . Hozirda



inklyuziv ta'limga 24 foiz bolalar qamrab olingan 2025-yilda bu ko'rsatkich 40 foizni tashkil etadi deb so'z yuritiladi konsipsiyada.

Ammo konsepsiyada 2020-2025- yillar mobaynida maktablarda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Afsuski maktabgacha talim ancha nazardan chetda qolgan, fikrimizcha birichi navbatda inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali yo'llaridan biri bu inklyuziv ta'limni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng joriy qilishdir. To'g'ri inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham mavjud, lekin bu ko'rsatkich juda ham kam foizlarni ko'rsatadi. Biz institutimiz tomonidan turli xil bog'chalarga malakaviy amaliyot o'tash uchun yuborilamiz, lekin amaliyotim davomida birorta ham inklyuziv ta'limga moslashtirilgan bog'chalarni uchratmadim, bunday bog'chalarni Respublikamiz hududida qo'l bilan sanoqli miqdordagina mavjud.

Xo'sh, inklyuziv ta'limni maktabgacha ta'limda keng doirada joriy qilish bizga nima beradi? Avvalo bu birinchi navbatda "Har kim ta'lim olish huquqiga ega" nomli qarorni bog'cha ta'limidan boshlab targ'ib qilinishi, ya'ni bolalarni huquqlarini himoya qilishni jamiyatga o'rgatadi.

Jamiyatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan noto'g'ri qarashlar mavjud, bu qarashlarni ularning ongidan o'chirish, imkoniyati cheklangan bola boshqa bolalar singari bola ekanligini uqtirish. Bu jarayon ko'proq televideniya, radio va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib berilsa, insonlar ongida inklyuziv ta'lim haqidagi tushuncha tezroq shakillanadi.

Imkoniyati cheklangan bolani erta yoshdan inklyuziv ta'limga berish unga jamiyatga tez moslashishiga yordam beradi. Chunki ular hali men ulardan boshqachaman yoki imkoniyatim cheklangan deb hisoblamaydi. Sog'lom tengdoshlari bilan tez munosabatga kirishadi va ijtimoiy integratsiyasi jadallashadi. Maktabgacha yoshdagi bolani inklyuziv ta'limga berish ota-onani cho'chitadi, yoki har qanday imkoniyati cheklangan farzandi bor ota-onalar bolalarini inklyuziv ta'limga berishdan tortinishadi, yo bo'lmasa bosh tortishadi, bu bilan ular o'z farzandlarini huquqlarini poymol qilishadi. Shuningdek ko'pchilik ota-onalar imkoniyati cheklangan farzandlarini yashirishadi yoki uyalishadi va ommadan to'sib qo'yishadi. Natijada bolaning fikrlashi tengdoshlaridan ortda qoladi, ijtimoiy integratsiyalashmaydi. Natijada kimgadir qaram shaxs bo'lib tarbiyalanadi. Shu sababli mahallalardagi mas'ul shaxslar va pedagoglar imkoniyati cheklangan farzandi bor bo'lgan ota-onalar bilan alohida ishlashi va inklyuziv ta'limga jalb etishlari zarur.

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining navfli jihati juda ko'p. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi.

Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Kamsitilishlarni oldini oladi.

Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv talimning prinsiplari:

1. Insonning qadr-qimmatini, uning qobiliyati va yutuqlariga bog'liq emas.
2. Har bir inson o'ylash va his qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqat qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir-biriga muhtoj.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi real hamkorlikda amalga oshiriladi.
6. Hamma kishi o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashlariga muhtoj.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqqa erishishga nimadir qila olmasligi emas, balki nimadir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi. Inklyuziv ta'lim quyidagi ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi; maktabgacha umumta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim.

Bu ta'lim muassasalarining maqsadi bolalarni talim olishi va kasb-hunarga tayyorlashda ularning o'rtasidagi to'siqlikni bartaraf etib, ochiq ta'lim muhitini yaratishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim joriy etilgan maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglarining faoliyati haqida qisqacha yoritib o'tadigan bo'lsak, avvalo har bir pedagog o'z kasbini va bolalarni sevishi shart. Shundagina u o'zini bu soha ichida erkin his qiladi. Bunday ta'lim muassasalari pedagoglari ma'suliyatni ikki karra yuqoriroq his qilishlari lozim va boshqa pedagoglar ham bu jarayonga o'zlarini o'zlarini tayyorlab borishlari kerak. Kiyinchalik ularda moslashish oson kichadi.

Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi, hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim.

Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilikni bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatidan o'rganib boradi, individual rivojlanish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahat beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan alohida ehtiyojli bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi. Zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, ota onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.



Ijtimoiy pedagog – ijtimoiy ishchi vazifalari:

- bolani rivojlanishi uchun qulay bo'lgan muhitni tashkil qilish;
- bola huquqini himoya qilish qoidalariga rioya qilish;
- bolani hayotiy ko'nikmasi, qobiliyatlarini, ta'lim olishi, sog'liqni saqlash, oiladagi sharoitni rivojlantirishga bo'lgan barcha ehtiyojlarini qondirish.

Bolani ijtimoiy himoyalash jarayonida ijtimoiy pedagog( ijtimoiy ishchi) bilan ishlash mumkin.

Har bir bola davlat himoyasida bo'lib, mamlakatimizda ijtimoiy qo'llash tizimiga barcha bolalar qamrab olingan. Bolalarni ijtimoiy qo'llash tizimiga qiyin kechinmalarga tushgan( boquvchisini yo'qotgan, ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, alohida yordamga muhtoj bolalar, institutsion muassasalarning bolalari; qarovsiz va tarbiyasi og'ir bolalar va boshqalar).

Ijtimoiy ishchi maqsadi: bolani barcha ehtiyojlarini qoniqtirishga va uni oilasiga yordam berishdan iborat.

## **Xulosa**

Muxtaram Prezidentimizning inklyuziv ta'lim sohasiga qaratgan yuksak e'tiborlari natijasida biz alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni tubsizlik qaridan qutqarish imkoniyatiga egamiz. Tubsizlik deganimda men ilmsizlik, o'z shaxsini tanimaslik va o'zlarini jamiyatning bir qismi, bir bo'lagi ekanligini bilmasliklarini va jamiyatdan o'zlarini olib qochishlarini nazarda tutyabman. Bu holatdan ularni biz pedagoglar va atrof - muhit ya'ni, jamiyatdagi insonlar to'g'ri tushunish, qabul qilish va yordam qo'lini cho'zish orqali albatta biz ularni bu tubsizlikdan qutqaramiz. Bu ta'lim sohasining kirib kelishi albatta jamiyatimizni ham manfaatsiz qoldirmaydi. Ya'ni, jamiyatni qashshoqlikdan qutqaradi. Avvalo biz va jamiyat inklyuziv ta'limga tayyor bo'lsak albatta bolalar ham bu jarayoga osonlik bilan moslashishadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ganievna, Fotima R. "Intellectual Youth is the Future of Our Country." International Journal on Integrated Education, vol. 4, no. 6, 2021, pp. 58-62, doi:10.31149/ijie.v4i6.1934.
2. Bustanovna, I. D. (2021). Socio-ethnic factors of psychological adaptation of foster-families and children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 34-37.
3. G'aniyevna R.F. Rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarda ta'lim va tarbiya. – 2022.
4. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/osmirlar/talim-va-men/inklyuziv-talim-nima/>